

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING KUNDALIK HAYOTDA VA TA'LIM SOHASIDAGI AHAMIYATI

**Avazbekova Mohira**

*FarDU filologiya fakulteti 1-kurs 23.85-guruh talabasi*

**Aldashev Ilhomjon**

*FarDU axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos uslublari, uning yoshlar kamolotidagi tutgan o'rni haqida qarashlar bayon etilgan*

**Kalit so'zlar:** *yoshlar, axborot, axborot madaniyati, internet, ta'lim. HEMIS, kundalik.com, masofaviy ta'lim.*

Asrimiz axborot texnologiyalari asri deb nomlangani misol, kundalik hayotimizda ham zamonaviy texnika va texnologiyalar ayri-ayri ahamiyatga ega. Bular vositasida hayotimizda talaygina qulayliklar yuzaga keldi. Maishiy texnikalar, televizor, kompyuter va telefonlarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.

Bugungi globallashuv jarayonida eng qimmatli narsamiz bu vaqt, albatta. Kompyuter texnologiyalari bizga aynan shu borada yordam beradi.

Xususan, ayol-qizlarimizga qator qulayliklar yaratib berayotgan online savdoga to'xtalsak. Agar siz biron buyum sotib olmoqchi bo'lsangiz, bozorga borishingiz shart emas. Gavjum va shovqinli magazinlarni aylanishga to'g'ri kelmaydi. Eng muhimi, siz buning uchun alohida vaqt ajratmaysiz. Har qanday joyda, ish joyingizda ham, kafeda ham, mashinangizda ham o'zingizga ma'qul keladigan buyumni tanlashingiz va buyurtma berishingiz mumkin.

Ta'lim jarayoniga ham zamonaviy axborot texnologiyalari keng ko'lamda kirib kelgan. O'qishga hujjat tayyorlashda, dars mashg'ulotlarni bajarishda texnologiya vositalari juda qo'l keladi. O'quv jarayonlarini baholash va nazorat qilish ham kompyuter tarmoqlari orqali (HEMIS, kundalik.com) amalga oshirilmoqda.

Qolaversa, zamonaviy texnologiyalar vositasida endilikda masofadan o'qib-o'rganish imkoniyati ham mavjud. Dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonda turib o'qish hamda diplom olish mumkin.

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi. Moslashuvchanlik – ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi. Modullilik – bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi. Parallellik – o'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi. Keng qamrovlilik – ko'p sonli o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zaxiralariga

murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati. Iqtisodiy tejamkorlik – o'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarini tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi. Ijtimoiy teng huquqlilik – ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'i nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati.

Zamonaviy qurilmalarda foydalanuvchi uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan funksiyalar asta sekin kengayib bormoqda. Dasturiy ta'minot fotoalbomalarini ko'rish, musiqa tinglash, kompyuter o'yinlarini o'ynash, shuningdek, kitob ham o'qish mumkin.

Intellektual rasurslarning hajmi va ulardan foydalanish imkoniyatlari oshib bormoqda. Internet elektron kutubxonalar kataloglari bilan birgalikda masofa va vaqtdan qat'i nazar ochiq bo'lgan ulkan ma'lumot to'plamlariga kirish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda jahon bozorida bir necha o'nlab elektron kitoblar modellari mavjud. O'zbekistonda kitob o'qish uchun elektron qurilmalarni yaratish va ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Ectaco uz" kompaniyasi elektron kitoblarni ishlab chiqarishni va loyihalashtirishni yo'lga qo'ygan. Elektron kitoblarning o'quvchi va talabalar, umuman olganda, har bir kitobsevar uchun ko'plab afzalliklari mavjud. Elektron kitobda matn bo'yicha izlashlarni, giperilova bo'yicha o'tishlarni, vaqtinchalik ajratishni va ilovalarni aks ettirishni amalga oshirish mumkin. Bir qurilmada yuzlab va minglab kitoblar saqlanishi mumkin va bosma kitoblarga qaraganda olib yurish oson. Elektron kitoblarni tarqatish va izlash bosma kitoblarga qaraganda kamroq vaqt va xarajat talab etadi. Elektron kitoblarning shrift tuzilishi va kattaligini ham o'zgartirish mumkin. Eng asosiysi esa kitoblarning elektron variantidan foydalanish orqali tabiatga keltirilayotgan zarar ham aytarli ravishda kamayadi, ya'ni bosma kitoblardan farqli ravishda qog'oz sarflanmaydi.

Yuqoridagi fikr va faktlardan xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalari sababli iqtisodiy sohada ta'lim sohasida va boshqa bir qator yo'nalishlarda sifat oshib bormoqda. Bugungi kunda hech qaysi ishimiz texnika va texnologiyalarsiz bitmay qoldi va ushbu sohadagi mutaxassislarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023

2.     TEKNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI O'RNI M  
To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research  
International ..., 2023
3.     O 'QUV JARAYONIGA MEDIA TA'LIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev -  
Scientific journal of the Fergana State University, 2023
4.     Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion  
texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
5.     Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в  
образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
6.     Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy  
intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo 'llanilishi. In INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"